

**HOZIRGI KUNDA SUN'IY INTELEKTNING TILLARNI
O'RGANISHGA TA'SIRI**

Abduxoliqova Shamshoda Anvar qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti ing

liz tili filalogiyasi 1- kurs talabasi

Abduholiqovashamshoda84@gmail.com

Annatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektning xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda neyron tarmoqlar asosida ishlovchi til modellari (ChatGPT, Google Bard va boshqalar), nutqni aniqlash tizimlari va moslashuvchan o'quv platformalarining afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellektning an'anaviy ta'lim metodlaridan farqi, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi hamda til o'rganuvchilar uchun yaratilayotgan shaxsiy (individual) yondashuv masalalari yoritilgan. Maqola yakunida SI texnologiyalaridan foydalanishdagi metodik tavsiyalar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, platforma, an'anaviy, xorijiy tillar, intellekt, metod, tadqiqot, texnologiya

Annatsiya: This article analyzes the impact of modern technologies, particularly artificial intelligence, on the process of learning foreign languages. The study examines the advantages of neural network-based language models (such as ChatGPT, Google Bard, and others), speech recognition systems, and adaptive learning platforms. It also highlights the differences between artificial intelligence and traditional teaching methods, the changing nature of relationships between students and teachers, and the development of personalized approaches for language learners. The article concludes with methodological recommendations for using AI technologies and discusses potential challenges that may arise in their implementation.

Key words: Artificial Intelligence, platform, traditional, foreign languages, intelligence, method, research, technology.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние современных технологий, в частности искусственного интеллекта, на процесс изучения иностранных языков. В исследовании рассматриваются преимущества языковых моделей, основанных на нейронных сетях (таких как ChatGPT, Google Bard и другие), систем распознавания речи и адаптивных образовательных платформ. Также освещаются различия между искусственным интеллектом и традиционными методами обучения, изменения во взаимоотношениях между студентами и преподавателями, а также вопросы формирования индивидуального подхода к изучающим язык. В заключении статьи представлены методические рекомендации по использованию технологий искусственного интеллекта и рассмотрены возможные трудности, которые могут возникнуть при их внедрении.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, платформа, традиционный, иностранные языки, интеллект, метод, исследование, технология.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganayotgan vaqtda har bir shaxs Sun'iy Intelektidan foydalanadi va buning sababi SI platformalari an'anaviy o'rganishga nisbatan ancha tez . Bu platformalar faqat bitta tilni emas , balki dunyoda qo'llanadigan barcha tillarni boshqa tilga tarjima qilib bera oladi. Ayniqsa, hozirda zamonaviy tillarni o'rganayotgan yoshlar SI dan foydalanishyapti. Til o'rganayotganlar faqat darslarda va cheklangan vaqtda emas balki kun davomida o'zlari o'rganayotgan til ustida ishlashlari mumkin agar ular SI dan yaxshi foydalanishni bilishsa.SI platformalari o'rganuvchilarni kutishga majbur qilmaydi, balki juda tezda xohlagan tilni xohlagan ko'rinishda chiqarib beradi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt ning qo'llanilishi o'quvchilar faolligini oshirish va tilni tezroq o'zlashtirishga yordam beradigan o'qitish strategiyalari imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu strategiyalar orasida ta'limiy drama ingliz tilida suhbatlashish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun istiqbolli usul sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy rolli o'yin usullarini moslashuvchan aqlli tizimlar bilan birlashtirish orqali SI bilan boyitilgan ta'limiy drama o'quvchilarga interaktiv va kontekstga mos vaziyatlarda haqiqiy shaxslararo muloqotlarni mashq qilish imkonini beradi (Li & Wang, 2023).

SI faqat so'zlarni tarjima qilib bermay ularni mazmunini ham tushuntiradi.Masalan arab tilini oladigan bo'lsak bitta xarfiga adashadigan bo'lsa ham so'z ma'nosi o'zgarib ketadi va mukammal SI platformalari har bir so'zni mazmunini to'liq tushuntirib bera oladi. Chuqur o'rganish texnikalaridan, jumladan chuqur neyron tarmoqlari va chuqur ishonch tarmoqlaridan foydalanib, shuningdek ushbu

tarmoqlardan ham samaraliroq ishlaydigan kortikal algoritmlarga tayangan holda, SI platformalari(CHATGBT va GEMINI va boshqalar) katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamida samarali o'qitilishi mumkin bo'lgan ilg'or arxitektura va algoritmlardan foydalanadi.Tiln chuqurroq o'rganish uchun SI faqat bitta qolip asosida ma'lumotlar bermaydi balki har bir o'rganuvchining darajasiga mos tarzda mos lug'atlardan foydalangan holda tushuntiradi. Bu esa murakkab ierarxik tasvirlash va transformatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi hamda ovozni aniqlash, chatbotlar, qidiruv tizimlari va kompyuter ko'rish kabi sohalarda keng qo'llanilishiga yordam beradi.Ushbu imkoniyatlar tufayli bu ilovalar tabiiy tilni qayta ishlashga oid ko'plab funksiyalarni bajarishi mumkin. Bularga savollarga javob berish, hikoyalar yaratish, mantiqiy tahlil qilish, dasturlash kodlarini tuzatish va mashina tarjimasini amalga oshirish kiradi.

SI dan foydalanganda sizning nutqiy darajani baholab , yo'l qo'ygan xatolarni ko'rsatib agar so'rasalsa to'g'irlab aytishi mumkin. Agar muloqot qilishda suhbatdosh kerak bo'lsa SI bu vazifani bemaolol bajara oladi. SI dan faqat ishi shu xorijiy tillar bilan bog'liq sohadagi o'rganuvchilar uchun emas balki har qanday kasb egasi uchun ham qulay . Boshqa soha vakillari o'rganmoqchi bo'lgan tillarini mukammal emas balki faqat suhbatlar uchun o'rganishni xihlashadi va bunda SI katta yordam berishi mumkin va ular bundan xohlagan vaqtlarida foydalana oladilar.

Sun'I Intellekt platformalari faqat jahon tillarini emas balki dunyodagi deyarli hamma tilni o'rgatishi mumkin va bu ba'zi tillarni yo'qolib ketishini oldini oladi. Hozirda faqat xalqaro va ommabop tillarni o'rgatuvchi o'qituvchilar ko'p va shu sababdan kelajakda boshqa tillar yo'qolib ketishi mumkin ammo SI dan foydalanib bu tillarni o'rganadiganlar ko'paysa bular yo'qolib ketmaydi. O'rganuvchilar ham agar o'zlari xohlab va o'zlariga ishonsalar ko'proq tillarni o'rganishlari mumkin va SI bunga ko'p imkoniyatlar beradi.

Sun'iy intellekt til o'rganuvchilar uchun faqatgina foyda emas ularning zarariga ham ishlashishi mumkin. Agar qaysidir xorijiy tilda xalqaro sertifikat uchun tayyorlanayotganlar SI dan foydalanishsa bu grammatik jihatdan tahlil qilib bermaydi va bunga o'rganib qolishsa imtihon payti pand yeyishlari mumkin. Muloqot uchun doim SI dan foydalanilsa haqiqiy muloqot vaqtida ko'p kamchiliklar seziladi . Agar hamma SI platformalaridan boshqa xorijiy tillarni o'rganish uchun foydalanishsa , bu yaqin kelajakda til o'rgatuvchi mutaxassislar uchun iqtisodiy zararlarga sabab bo'ladi va bundan tashqari SI gid xizmati uchun ham yomon ta'sir qiladi , chunki xorijiy sayyohlar SI dan to'liq foydalanishni bilishsa va SI mukammal yaratilgan bo'lsa ular

tarjimonlik xizmatiga muhtoj bo'lmaydi. Professional muhitda SI ning tobora oshib borayotgan roli an'anaviy til ko'nikmalari bilan birga SI savodxonligini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi (Krüger, 2023). SI savodxonligi o'quvchilarga SI tizimlaridan samarali foydalanish va ularni boshqarish imkoniyatini beradi, shu bilan ular SI asosidagi ish bozorida raqobatbardosh bo'lib qoladi.

Kelajakda sun'iy intellekt (AI) yanada mustaqil bo'lishi mumkin. Mark O. Riedl va Brent Harrison, Georgia Institute of Technology ning Interaktiv Hisoblash Maktabida tadqiqotchilar, "Quixote" nomli AI prototipini ishlab chiqqanlar. Bu tizim oddiy hikoyalarni o'qish orqali axloqiy bilimlarni o'rganishi mumkin. Riedl va Harrisonning ta'kidlashicha, tizim insonlarning bir-biri bilan munosabatlarini aks ettiruvchi hikoyalar orqali insoniy qadriyatlarni teskari yo'l bilan aniqlay oladi. Masalan, Quixote o'rgangan: nima uchun o'g'rilik qilish yaxshi emas va samaradorlikka intilish odatda maqbul, lekin boshqa muhim omillar bilan to'qnashganda uni ustun qo'yish noto'g'ri. Shunga qaramay, bunday yangiliklar mavjud bo'lsa ham, inson axloqiy moslik menejerlari ilg'or tizimlarning to'g'ri ishlashini nazorat qilish va ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tillarni o'rganish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda va bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlari yordamida til o'rganish nafaqat osonlashdi, balki yanada qiziqarli va samarali bo'lib bormoqda. Turli xil mobil ilovalar, interaktiv platformalar va aqlli o'quv dasturlari o'quvchilarga individual yondashuv asosida bilim olish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa har bir o'quvchining o'z qobiliyati, tezligi va ehtiyojiga mos ravishda tilni o'rganishiga yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt til o'rganish jarayonida xatolarni aniqlash, talaffuzni to'g'rilash, yangi so'zlarni tez va samarali o'zlashtirish hamda real muloqot muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar yoki ovozli yordamchilar orqali o'quvchilar chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa an'anaviy ta'lim usullariga qo'shimcha ravishda yanada samarali natijalarni ta'minlaydi. Biroq, shuni ham unutmaslik kerakki, sun'iy intellekt inson o'qituvchisining o'rnini to'liq bosa olmaydi. O'qituvchi til o'rganishda nafaqat bilim beruvchi, balki motivatsiya beruvchi, madaniy va ijtimoiy jihatlarni tushuntiruvchi muhim shaxs hisoblanadi. Shu sababli, sun'iy intellektni ta'lim jarayonida yordamchi vosita sifatida to'g'ri va samarali qo'llash eng maqbul yechim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Boden, M. (2016). AI: A Very Short Introduction. Oxford University Press.

Riedl, M. O., & Harrison, B. (2023). Research on AI prototype “Quixote” and ethics learning. Georgia Institute of Technology, School of Interactive Computing.

Krüger, T. (2022). Neural Machine Translation and Human Translator Roles.

Krüger, T. (2023). AI Literacy and Professional Skills in Emerging Technologies.

Li, X., & Wang, Y. (2023). AI-augmented Educational Drama and Language Learning.

Zaki, N., et al. (2023). AI-based Systems for Mapping Learning Outcomes.

Aljanabi, H. (2023). AI in Education and Industry Applications.

Brown, T., et al. (2020). Language Models as General-Purpose Tools.

AlAfnan, I., et al. (2023). Ethical Concerns in Academic Use of ChatGPT.

Kung, J., et al. (2023). Reliability of AI-Generated Academic Content.

Perkins, R. (2023). ChatGPT and Learning Integrity in Education. Tlili, A., et al. (2023). AI Tools in Education: Benefits and Challenges.

Khan, S., et al. (2023). Enhancing Learning Experiences with ChatGPT.